


# **Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida**

Image not found or type unknown



## **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni**

Davlat tibbiyot muassasalari xodimlari faoliyati samaradorligini oshirish, yuqori samarali mehnatga intilishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ularning o'z kasbiy darajasini oshirib borishdan manfaatdorligini ta'minlash, shuningdek, 2022 yil 18 mart kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'lioni saqlash sohasi vakillari bilan "Tibbiyotdagi islohotlar – inson qadri uchun" mavzusidagi ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Belgilansinki, **2022 yil 1 iyundan boshlab** davlat tibbiyot muassasalari tibbiyot, farmatsevtika va boshqa xodimlarining oylik lavozim maoshlari:

**oliy va birinchi malaka toifalariga** ega bo'lgan tibbiyot va farmatsevtika xodimlari uchun – **15 foizga**;

**ikkinchi malaka toifasiga ega bo'lgan va toifaga ega bo'Imagan**, shuningdek, boshqa tibbiyot va farmatsevtika xodimlari uchun – **10 foizga**;

tibbiyot muassasalarining **boshqa xodimlari** uchun – **15 foizga** oshiriladi.

Bunda, tibbiyot muassasasi xodimlarining tarif stavkalarini hisoblash amaldagi mehnatga haq to'lash razryadlari bo'yicha tarif koeffitsiyentlarini tegishinchcha 1,15 va 1,1 barobarga ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

2. **2022 yil 1 iyundan boshlab** Tibbiyot muassasalarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasini (keyingi o'rnlarda – Jamg'arma) shakllantirish uchun Davlat

byudjetidan ajratiladigan mablag'lar miqdori tibbiyot muassasasi uchun ajratiladigan byudjet mablag'larining umumiy hajmiga nisbatan quyidagi miqdorlarda belgilansin:

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmati, bolalar tibbiyot muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati hamda ijtimoiy kasallikkarga (sil, buyrak yetishmovchiligi, onkologik, ruhiy, narkologik, endokrin, moxov (lepra), yuqumli, jinsiy yo'l bilan yuqtiriladigan, OITS) ixtisoslashgan tibbiyot muassasalarida – umumiy xarajatlarning **10 foizi**;

respublika va viloyat darajasidagi boshqa sog'liqni saqlash muassasalarida – umumiy xarajatlarning **5 foizi**.

Belgilab qo'yilsinki, Jamg'arma mablag'larining **75 foizi** guruhidan qat'i nazar barcha davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishga, **25 foizi** – tibbiyot muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, modernizatsiya qilish hamda ta'mirlashga yo'naltiriladi.

Bunda:

xodimlarni moddiy rag'batlantirishga ajratilgan mablag'lar hisobidan davlat tibbiyot muassasasining yuqori malakali, alohida natijaga erishgan, halol va vijdongan ishlayotgan **tibbiyot hamda farmatsevtika xodimlariga oylik lavozim maoshining 100 foizigacha** hamda **boshqa xodimlarga 75 foizigacha** oylik ustamalar;

yangi ish boshlagan salohiyatlari **yosh shifokorlarga 1 million so'mgacha** maxsus oylik ustamalar;

oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda kunduzgi statsionar ish vaqtini soat 20:00 gacha uzaytirish hisobiga ikkinchi smenada ishlovchi shifokor hamda hamshiralarga lavozim maoshining **30 foizigacha oylik qo'shimcha ustamalar** to'lab beriladi.

Sog'liqni saqlash vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda **bir oy muddatda** Jamg'arma mablag'lari hisobidan tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini tasdiqlasin.

3. Tibbiyot muassasalarida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxatga muvofiq yuqori texnologik murakkab operatsiyalarni bajargan shifokor-xirurglar lavozim maoshining **25 foizi miqdorida** qo'shimcha ustama joriy etilsin.

Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda **ikki hafta muddatda** yuqori texnologik murakkab operatsiyalar ro'yxatini tasdiqlasın.

4. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) **2022 yil 1 sentyabrdan boshlab** davolash-profilaktika muassasalarining xodimlariga ularning tibbiyat sohasida va mehnat faoliyatida ilmni rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini inobatga olgan holda, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan fan doktori (**Doctor of Science**) **ilmiy darajasi** uchun lavozim maoshining **60 foizigacha** va **fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi** uchun lavozim maoshining **30 foizigacha** miqdorda har oylik qo'shimcha haq to'lanadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi va Moliya vazirligi bilan birgalikda **bir oy muddatda** davolash-profilaktika muassasalarining ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlariga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini kirtsin;

b) barcha tibbiyat xodimlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan **bepul o'tkaziladi**.

Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda tibbiyat xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar uchun zarur mablag'larni doimiy ravishda tibbiyat muassasalarining xarajatlar smetasida ko'zda tutilishini ta'minlasin.

5. Belgilab qo'yilsinki, **2022 yil 1 iyuldan boshlab** viloyatlar hamda Toshkent shahridan, shuningdek, xorijiy davlatlardan Qoraqalpog'iston Respublikasining **Taxtako'pir, Chimboy, Qorao'zak, Bo'zatov, Shumanay, Qo'ng'irot tumanlariga** borib ishlovchi shifokorlarning oylik lavozim maoshiga dastlabki uch yil davomida **100 foiz, Mo'ynoq tumanida esa 200 foiz** miqdorida qo'shimcha har oylik ustama to'lovlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Bunda, mazkur bandda ko'rsatilgan ustamani olish uchun shifokor boshqa hududda kamida ikki yil ishlagan hamda kamida ikkinchi darajali malaka toifasiga ega bo'lgan bo'lishi lozim.

6. Madaniyat vazirligi, Kinematografiya agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan:

tibbiyat xodimlarining mashaqqatli va sharafli faoliyati tasvirlangan badiiy, sahna va kino

asarlarini hamda seriallarni ko'paytirsin;

tibbiyot xodimlarini yilda bir marta teatr va konsert tomoshalariga bepul olib borish tizimini tashkil etsin.

7. Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda **2022 yil 1 iyulga qadar** tibbiyot muassasalarining boshqa (boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi) xodimlarining mehnatiga haq to'lash tarif razryadlarini ularning ish staji va malaka toifasini inobatga olgan holda tasdiqlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-6221сон farmonida markaziy tuman (shahar) shifoxonalari o'rinni fondining byudjetdan tashqari o'rinni fondiga o'tkazilishi belgilangan qismi uchun Davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibini saqlab qolish hisobiga ehtiyojdan kelib chiqib (bundan shoshilinch, bolalar, yuqumli kasalliklar, tug'uruq hamda gemodializ o'rinnari mustasno), tor ixtisoslikdagi nevrologiya, kardiologiya hamda endokrinologiya o'rinnari tashkil etilsin.

9. Moliya vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda mazkur farmon bilan belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun:

ikki oy muddatda "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kirtsin;

2023 yildan boshlab Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda zarur mablag'lar ko'zda tutilishini ta'minlasin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

11. Sog'liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu farmonidan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

12. Mazkur farmonning ijrosini nazorat qilish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinosari L.N.To'ychiyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi**

**Prezidenti**  
**Sh.MIRZIYOEV**

*Toshkent shahri,*

*2022 yil 17 may*